



Received: April 23, 2022
Accepted: June 19, 2022
Available online: June 25, 2022

Aziza Ahmedova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

IJODKOR SHAXS TABIATI ADABIY MUSHTARAKLIK MANBAI SIFATIDA

ANNOTATSIYA

Maqolada qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim tushunchasi – tipologik mushtaraklik xususida so'z boradi. O'zaro kontakt aloqalarga ega bo'lgan adabiyotlarda uchraydigan mushtarak hodisalar tipologik yo'nalishning asosini tashkil etadi. Kontakt-genetik aloqalar, asosan, o'zaro aloqaga ega adabiy hodisalarni tadqiq etishni nazarda tutsa, tipologik o'xshashliklar umumadabiy hodisalarni o'rganadi. Tipologik tadqiqotlarning ahamiyati shundaki, ushbu izlanishlar umumadabiy qonuniyatlarni kashf qilishga, adabiy hodisalar ning barcha xalqlar adabiyotiga xos bo'lgan, shuningdek, individual xususiyatlarni ilmiy o'rganish imkoniyatini beradi. D.Dyurishin tipologik mushtarakliklarni tasnif etib, badiiy analogiyalarning uch turi mavjudligini ta'kidlaydi, ular – ijtimoiy, adabiy va psixologik o'xshashliklardir. Ijtimoiy-tipologik o'xshashliklar tarixiy davr, iqtisodiy-madaniy taraqqiyot va muayyan jamiyatda yetakchi bo'lgan g'oyaviy omillarni hisobga oladi. Adabiy-tipologik mushtaraklik sof adabiy hodisaga asoslanadi. Maqolada, psixologik tipologik mushtarakliklarga asosiy e'tibor qaratildi. Ushbu o'xshashlik ijodkor shaxsining individual-psixologik jihatlarni qamrab oladi. Bunda ko'proq ijod psixologiyasiga e'tibor beriladi. Adabiy hodisadagi mushtaraklik mualliflar tabiatidagi ruhiy yaqinlik bilan izohlanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – psixologik-tipologik mushtaraklikning shaxs tabiati bilan aloqasini o'rganishdir. Muallif psixologik-tipologik o'xshashliklarni ijodkorlar tabiati, xususan, Karl Yungning ruhiy tiplar nazariyasi bilan aloqadorlikda o'rganilishini yoqlaydi. K.Yung "Rihiy tiplar" asarida tashqi muhitga munosabati, ruhiy quvvatini yo'naltirish ob'yektiga ko'ra shaxslarni extrovert va introvert tiplarga ajratadi.

Aziza Akhmedova

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: aziza.ahmed@inbox.ru

THE NATURE OF AN AUTHOR-CREATOR AS A SOURCE OF LITERARY SIMILARITIES

ANNOTATION

The article deals with typological commonalities, which are important concepts of comparative literature. Common phenomena found in literatures that do not have mutual contact relations on the basis of the typological area. Contact-genetic relations mainly refer to the study of interrelated literary phenomena, while typological similarities study general literary phenomena. The importance of typological researches is that these researches provide an opportunity to discover universal literary laws, scientific study of literary phenomenon characteristic of the literature of all nations, as well as individual characteristics. According to D.Dyurishin's classification of typological similarities, there are three types of artistic analogies: social, literary and psychological. Socio-typological similarities take into account the historical period, economic and cultural development and ideological factors occurring in a particular society. Literary-typological commonality is based on purely literary phenomenon. The article focused on psychological typological commonalities. This similarity covers the individual-psychological aspects of the creator's personality. More attention is paid to the psychology of creativity. The commonality in the literary phenomenon is explained by the spiritual closeness in the nature of the authors. The purpose of this study is to analyze the relationship between psychological typological features and personality. The author of the article supports the study of psychological typological similarities in connection with the nature of creators, in particular, Carl Jung's theory of mental types. Jung classifies individuals into extrovert and introvert types according to the

Shuningdek, bunda K.Yung tafakkur, hissiyot, sezgi va intuitsiya kabi funksiyalarning yetakchiligini hisobga oladi. Yungning fikriga ko'ra, qaysi ruhiy tipga mansublik shaxs tafakkurining shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Maqolada psixologik-tipologik o'xshashliklar K.Yungning shaxs tipologiyasi prizmasi orqali o'rganildi. Ingliz, amerika va o'zbek adabiyotidan olingan misollar maqolada ilgari surilayotgan fikrlarni dalillashga xizmat qilgan. Uilyam Vordsvort hamda Aleksandr Pop, Bleyk va Mashrab misolida shoirlarning hayot yo'li va ijodidagi yaqinlikning manbai ularning tabiati, muayyan ruhiy tipga mansubligi bilan aloqador ekanligi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, biografik, chog'ishtirma, psixologik tahlil usullari qo'llanilgan. Natijada psixologik-tipologik analogiyalarni tadqiq etishda ijodkorlar shaxsini, qaysi ruhiy tipga mansubligini hisobga olish ijod jarayonining yangi qirralarini ochishga yo'l berishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: psixologik-tipologik mushtarakliklar, introversiya, ekstroversiya, psixologik metod, psixoanaliz, shaxs tipologiyasi, introvert, exstrovert, analogiya.

object of their attitude to the external environment and direction of mental energy in the work "Psychological Types". Also, in this, Jung takes into account the leadership of functions such as thinking, feeling, sense and intuition.

The article focused on psychological typological commonalities. According to Jung, belonging to which psychological type is important in the formation of a person's thinking. Examples from English, American, and Uzbek literature served to prove the ideas presented in the article. In the example of William Wordsworth and Alexander Pope, Blake, and Mashrab, it is explained that the source of closeness in the life and work of poets is related to their nature, belonging to a certain spiritual type. Comparative-typological, biographical, contrastive, and psychological analysis methods were used in the research process. As a result, in the research of psychological typological analogies, it has been determined that taking into account the personality of creators, and to which mental type they belong, opens up new aspects of the creative process.

Key words: psychological typological similarities, introversion, extroversion, psychological method, psychoanalysis, personality typology, introvert, extrovert, analogy.

KIRISH

Turli ijodkorlar asarlaridagi mushtarakliklarni aniqlash va ushbu mushtarakliklar asosida badiiy adabiyotning umumiy qonuniyatlarini kashf qilish qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Inson tafakkurining universal jihatlari turli adabiyotlarda o'z-o'zidan tug'ilgan mushtarakliklar "psixologik parallelizm"larni vujudga keltirishi A.N. Veselovskiy tomonidan 19-asrda e'tirof etilgan. Ma'lumki, adabiy aloqalar D.Dyurishin nazariy asoslab bergan binar modeliga ko'ra, kontakt-genetik va tipologik o'xshashliklarga bo'linadi. Tipologik o'xshashliklar esa ijtimoiy, adabiy va psixologik mushtaraklar kabi turlarga ajratilgan. Tipologik analogiyalarning tasnif va ta'riflari boshqa ko'plab olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Biroq, tipologik mushtarakliklarning har bir turi bo'yicha alohida tadqiqotlar sanoqli. Xususan, D.Dyurishin *psixologik tipologik mushtarakliklar* deb nomlagan analogiyalar bo'yicha nazariy va tahliliy manbalarning dunyo ilm-fanida tanqisligini ta'kidlash joiz. Ijtimoiy va adabiy mushtarakliklardan farqli ravishda psixologik o'xshashliklarda ijodkor shaxsning tabiati, muayyan asarlarning yaratilishi va ijod jarayonidagi ruhiy-emotsional yondoshlik–yaqinlik aniqlanadi. Bu esa o'z navbatida, A.N. Veselovskiy ta'biri bilan aytganda, bani basharga xos tafakkur va ruhoniylar umumqonuniyatlarni idrok etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Psixologik mushtarakliklar adabiyotshunoslik va psixologiya kesishadigan mavzulardan biridir. Adabiyotshunoslikda psixogenetik maktab 19-asrning ikkinchi yarmida Yevropa va Rossiya ilm-fanida vujudga keldi. Ayonki, badiiy ijod hamda psixologiyaning yagona ibtido – ruh bilan bog‘liqligi ikki sohada kashf etilgan qonuniyatlarning o‘zaro ta’siri yuqori ekanligidan dalolat beradi. Xususan, psixologik metod ijodkor ruhiyatini, badiiy ijod jarayoni va obraz ruhiyatini chuqur ilmiy-badiiy tahlil qilishda sarmahsul vosita bo‘lib xizmat qiladi. Psixologik metod tarafdorlari “ijodkorga, yozuvchining emotsiyalariga, ijodning psixologik jihatlariga, eng muhimi – avtorning ruhiy-ma’naviy dunyosi hamda ijod jarayoniga va bu jarayondagi psixologik holatlarga e’tibor lozim, deb hisobladilar” [Karimov B., 2018; 178]. Yevropa adabiyotshunoslaridan S.Jirarden, E.Enneken, V.Ves, rus olimlaridan A.A. Potebnya va uning izdoshlari D.N. Ovsyaniko-Kulikovskiy, A.G. Gornfeld, T.Raynov va M.S. Grigorev ushbu metodning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. O‘tgan asr boshlarida Z.Freyd ta’limoti ta’sirida psixoanalitik tadqiq usuli adabiyotshunoslikka kirib keldi. Psixoanalitik tahlilda badiiy asar “ongsizlik (бессознательное) psixologiyasi bilan birgalikda talqin etiladi” [Karimov B., 2018; 178]. Psixoanaliz qiyosiy adabiyotshunoslikda ham salmoqli natijalar bermoqda. Shuningdek, ruhshunos olim Karl Yung qarashlari psixoanalizga yangi tushunchalarni olib kirdi. Xususan, arxetiplar nazariyasi badiiy asarni tadqiq qilishning yangi istiqbollarini ochib berdi. Biroq, Karl Yungning ekstroversiya va introversiya haqidagi qarashlari badiiy asar tahlilida faol qo‘llanilgan emas, nazarimizda. Mazkur qarashlarni komparativistikada, badiiy mushtarakliklar tahlilida qo‘llash unumli natijalarga, asarlar orasidagi tuyqus ko‘zga tashlanmaydigan analogiyalarni tadqiq etishda unumli foydalanish mumkin.

Badiiy asarlarda shunday o‘xshashliklar bo‘ladiki, ularni na ijtimoiy tuzumdagi analogiyalar bilan, na adabiy muhitdagi yaqinliklar na o‘zaro aloqalar bilan izohlash mumkin. Bir-biridan makon va zamonda kesishmaydigan ijodkorlarning qondosh qahramonlari, hamohang bayon usuli yoki shunday ruhiy ayniyatdoshligi uchraydiki, ushbu mushtarakliklarni mohiyatiga yetish hamon mushkul bo‘lib qolmoqda. Adabiyotshunos olim S.Meliev psixologik analogiyalarni tadqiq etish muhimligini quyidagicha izohlaydi: “Ruhii yaqinlik, ruhdoshlikni qiyosiy adabiyotshunoslik markaziga olib chiqish zarurdir.... umuman olganda, ruhdoshlik tadqiqi va talqini qiyosiy adabiyotshunoslikni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqsa ajabmas” [Meliev S., 2020; 12].

Muayyan yozuvchi yoki shoirning tabiatidagi o‘xshashliklar asarlardagi yaqinlikka, mushtarakliklarga sabab bo‘ladimi? Ijodkor tabiati deyilganda, ruhshunoslik atamasi bilan aytganda temperament nazarda tutiladi. “Psixologiya fanida temperament xususiyatlari deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o‘zgaras individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi” [Davletshin M., 2011; 83]. Mazkur maqolada badiiy tahlilda shvetsariyalik ruhshunos olim Karl Gustav Yungning (1875-1961) psixologik tiplar haqidagi qarashlarini badiiy ijodda, xususan, adabiy o‘xshashliklarni tadqiq etishda qo‘llashga harakat qildik. “Karl Gustav Yung ijodkorning ijod jarayonidagi ruhiy

holatlarini o'rganib, ularni uch tomonlama: ijodkor shaxsini, ijod jarayonini hamda shu jarayon mahsuli bo'lmish san'at asarini alohida tahlildan o'tkazdi" [Obidjonova F., 2013]. Bunda Yung, asosan, ijodkor, asar va ijod jarayonini ikki turga – introvert va ekstravert turlariga ajratib ko'rsatish orqali ruhiy tahlil estetikasiga yangiliklar kiritdi [Obidjonova F., 2013]. Aytish joizki, Karl Yungning tiplar tasnifini ishlab chiqishiga Uilliyam Jeyms, Shiller (nominalizm va realizm), Otto Gross, F.Jordan kabi ruhshunoslarning qarashlari asos va turtki bo'lib xizmat qilgan. Ruhiy tiplar tasnifi g'oyasiga Karl Yung o'zining ikki hamkasbi o'rtasida bo'lgan nifoq sabab qiziqib qoldi. Yigirmanchi asrning ikki daho ruhshunos olimi Zigmund Freyd va Alfred Adler nevroz kasalligining kelib chiqishi masalasida ayricha fikr bildiradilar. Z.Freyd kasallikni hirsiiy mayllar bilan bog'lagan bo'lsa, A.Adler esa, bunday holatda shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatni, hukmronlikka intilish hissini e'tiborga olishni taklif qildi. Karl Yung mazkur nifoqning sabablarini chuqur tahlil qilar ekan, ikki olimning ijtimoiy kelib chiqishi, ta'limi, istiqomat qilayotgan muhiti o'xshash bo'lsa-da, ularning o'rtasidagi farq har ikki olimning olamga munosabatida, shaxs sifatida ularning ikki xil ruhiy tiplarga mansubligida, degan xulosaga keldi. "Bu savolga javob berishga urinib, men tiplar muammosiga duch keldim; chunki boshidanoq insonning mulohazalarini belgilaydigan va cheklaydigan omil psixologik tipdir" [Yung K., 1989; 6]. Ya'ni, K.Yungga ko'ra, "Z.Freydning qarashlari ekstrovert, A.Adler esa, introvert" [Yung K., 1971; 15] bo'lganligi mazkur masalada ikki xil yondashuvga olib kelgan. Demak, ikki olimning tabiatidagi nomuvofiqlik ularning fikrlash tarziga, borliqni idrok etishiga ta'sir qilishi haqidagi xulosalar Karl Yungni psixologik tiplarni tadqiq etishiga turtki bo'ldi. Ilk bor K.Yung psixologik tiplar haqidagi qarashlarini 1913-yili konferensiya ma'ruzasida e'lon qildi. Uzoq yillik kuzatuvlar, mutaxassislar va hamkasblari bilan munozaralar, fikr almushinuvlar natijasi o'laroq 1921-yili "Psychologische Typen" asarini chop ettirdi. Bu asar 1923-yili ingliz tiliga, 1929-yili rus va boshqa tillarga o'girildi.

Psixologik tiplar Karl Yung uchun insonlarga yorliq qilish yoki ularni guruhlashtirish vositasi emas, balki "yig'ilgan empirik manbalarni tartibga solish vositasi, tanqidiy apparat sifatida baholangan" [Yung K., 2001; 16]. Olimning ta'kidlashicha, "mazkur tasnif muayyan shaxs ruhiyatini izohlamaydi, biroq bashariyatga xos bo'lgan umumiy ruhiyatni teranroq anglashga yo'l beradi" [Yung K., 2001; 16]. Zotan, inson o'zini anglash orqaligina makroolamni idrok etishi mumkin. Inson quvvatini borliqni, tashqi olamni idrok etishga yo'naltirsa, unga ekstrovertlik xos. Aksincha, quvvatini o'z ichki dunyosini anglashga sarflasa, bu introvertlik alomati. Har bir insonda har ikki ruhiy tipga xos xususiyatlar mavjudligini Karl Yung takroran ta'kidlaydi. Ya'ni, introvertsiya yoki ekstrovertsiyaga xos xususiyatlarning hajmi shaxsni u yoki bu tipga mansubligini belgilaydi. Mutlaq bir ruhiy tip xususiyatlaridan iborat shaxs ruhiyati bo'lmaydi, shuningdek, ushbu xususiyatlar ijtimoiy voqe'lik, tajriba, ko'nikmalar orttirilishi oqibatida silliqqlanishi, yorqin namoyon bo'lmasligi yoki chuqurlashishi ham mumkin. Biroq butunlay yo'qolib ketmaydi.

Ekstrovertlar uchun tashqi olam bilan faol munosabatga kirishish, jonli muloqot, o'z his-tuyg'ularini boshqalar bilan baham ko'rish muhim ahamiyatga ega. Ular uchun

libido (Karl Yung ta'limoti bo'yicha libido, bu – psixologik energiya [Ewen R.B., 2014; 62], u tashqi olamga, ob'yektga qaratilgan. Introvertlar uchun esa, aksincha, ichki olam sirlarini anglash, tafakkur va xayol kengliklarini kashf qilish yetakchi qadriyat bo'lib, ruhiy quvvat botinga yo'nalgan. Mazkur moyilliklardan kelib chiqib, ekstrovertlarda ijtimoiy yuqori faollik, odamoxunlik, hushchaqchaqlik, kirishimlilik, sergaplik kabi xususiyatlar yorqin namoyon bo'ladi. O'z-o'zi bilan zerikmaydigan, kamgap, sermulohaza, ehtiyotkor shaxslarda introvertlik xususiyatlar yetakchilik qiladi. "Psixologik tip sinf, ta'lim, kasb yoki jinsga bog'liq emas, u biologik omillar mahsuli" [Geyer P., 2018; 2]. K.Yung inson u yoki bu ruhiy tipga moyillik bilan tug'ilishini ta'kidlasa-da, ijtimoiy muhit ta'sirini ham inkor etmaydi. Differensiya qilish imkonsiz bo'lgan ambivert tiplar ham bo'lishi olim tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, har ikki ruhiy tiplar to'rt funksiyaning (tafakkur, hissiyot, sezgi, intuitsiya) qay biri ustunligiga qarab yana tasniflanadi. Mazkur funksiyalarning ikkitasi Karl Yung tomonidan (tafakkur va hissiyot) ratsional – sezgi, intuitsiya esa irratsional funksiya deb nomlangan. Ruhiy tiplar dixotomiyasining qaysi biriga mansublikni aniqlashda turli testlar ishlab chiqilganligini ta'kidlash joiz (Grey-Uilraytning testlari, "Yung turlari indeksi" (JTI) so'rovnomasi, Ayzenk shkalasi, Mayers-Briggs testi). Karl Yung tomonidan asos solingan shaxs tipologiyasi haqidagi ta'limot keyinchalik sotsionika fanining vujudga kelishiga turtki bo'ldi.

Badiiy ijod va ruhiy tiplar o'rtasida qanday aloqa mavjud? San'at asarida ijodkorning qaysi ruhiy tipga mansubligi aks etadimi? Ushbu savollarga javob izlash Karl Yungni ham qiziqtirgan. Zero, olim ruhshunoslik va adabiyotshunoslikning ibtidosi yagona ekanligini ta'kidlagan. Bu ibtido – ruh. "Ruhshunoslik va badiiy ijod" deb nomlangan maqolada Karl Yung san'at va ruhshunoslik bir-birining tamoyillari bilan hisoblashishini, ularning o'zaro bog'liqliklarini e'tirof etadi. Shuningdek, maqolada asar yaratilish jarayoning ham introvert yoki ekstrovert kabi tiplarga tasniflanganligi diqqatga sazovor.

"Ruhiy tiplar" asarida ham badiiy ijod masalalariga alohida fasllar ajratilgan. Poeziyada tiplar muammosi. Karl Shpitteler yaratgan Prometey va Epimetey" deb nomlangan bobda K.Yung badiiy obrazlarda ruhiy tiplarning in'ikos etishini tahlil qilgan. K.Yung Karl Shpitteler 1881-yili yozgan "Prometey va Epimetey" asarining markaziy mavzusi ruhiy tiplar ekanligini e'tirof etadi. Asarda har ikki tip obrazlar va ularning taqdir yo'li orqali badiiy gavdalanitirilgan. Jumladan, Prometey obrazida introversiyaga xos xususiyatlar bo'rttirilib ifodalangan. Prometey o'z ichki olamiga sodiq, qalbiga go'yo hukmdorga itoat etgandek munosabatda bo'ladi. U uzoq kelajak xayollariga g'arq bo'lib, bugunini qurbon qiladi. Ukasi Epimetey bo'lsa, uning teskarisi. Epimeteyning barcha xatti-harakatlari tashqi olamni mahv etishga qaratilgan. Asarda Epimetey o'z qalbini farishtaga taqdim etib evaziga oliy fazilatlarga ega bo'lishni so'raydi. U o'tkinchi dunyoning tashvishlariga, hoy-u havaslariga o'zligini unutar darajada beriladi, o'zini namoyish qilishni, ommani hayratda qoldirishni hush ko'radi. Epimetey hayot tarzi ekstraversiyaning bo'rttirilgan misoli tarzida namoyon bo'ladi. Karl Yungning xulosa qilishicha, Prometey va Epimeteyni bir shaxs sifatida tasavvur qilsak, Prometey uning botiniy, Epimetey esa zohiriy tomonlarini tashkil qiladi.

Karl Yung Gyote tomonidan yaratilgan (1773-yil) Prometey va Epimetei obrazlarini Shpittelerning qahramonlariga qiyoslaydi. Ayon bo'ladiki, Gyoteda, aksincha, Prometey ekstravert sifatida namoyon bo'ladi. U faol bunyodkor, murabbiy va ibratli yo'lboshchi. Epimetei esa sermushohada, uning diqqati ichki dunyosiga yo'nalgan. Karl Yungning fikricha, Gyote ekstravert, Shpitteler esa introvert; mualliflarning qaysi ruhiy tipga mansubligi obraz yaratishda va asar yechimini berishda, hatto obrazlarning transformasiyaga uchrashida muhim rol o'ynagan. Olim o'z fikrlarini asardan keltirilgan parchalar va epizodlar tahlili bilan dalillagan. Mazkur tahlilning ahamiyati shundaki, Karl Yung badiiy asarlar va ijodkorlar misolida ruhiy tiplarning ta'sirini va o'rnini ilmiy izohlab bergan. Umuman olganda, garchi Karl Yungning tiplar ruhiyati adabiyotshunoslikda arxetiplar nazariyasi kabi mashhurlik darajasiga yetmagan bo'lsa-da, hozirgi kunda ushbu qarashlarni badiiy tahlilda qo'llash kengayib bormoqda.

Ruhiy tiplarning insonning olam haqidagi mushohadalariga ta'sirini amerikalik olim Robert Boksning "Temperament and the Interpretation of freedom: A study of some of the Psychological Determinants of Philosophical Thought" [Evans R.B., 1966] ("Temperament va ozodlik talqini: Falsafiy tafakkurning ruhiy omillari") nomli tadqiqotida asoslab berilgan. Dissertasiyada R.Boks ingliz faylasufi Uiliyam Templ (William Temple 1881-1944) va rus faylasufi Nikolay Berdyaevning (1874-1948) ozodlik haqidagi qarashlarini muqoyasa qiladi. Ikki faylasufning farqli mulohazalarini ularning tabiatidagi tafovut bilan bog'laydi. U.Templ ekstrovert sifatida ozodlikni jamiyatning tabiiy ehtiyoji safatida baholasa, mustabid tuzumda o'sgan, introvertlik xususiyatlariga ega N.Berdyaev shaxs erkinligiga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Mazkur tadqiqot falsafiy qarashlarning shaxs tabiati bilan aloqasini o'rganganligi bilan e'tiborga molik.

Badiiy ijodga qaytsak. Ayrim asarlardagi obrazlar, motivlar, uslub yoki badiiy konsepsiyadagi mushtarakliklarni ijodkorlar tabiati bilan aloqador ekanligini kuzatish mumkin. Ijodkorlar biografiyasini chuqur o'rganish, xususan, ruhiy tiplar nuqtai nazaridan tahlil etish muayyan asarni butunlay yangi rakursdan baholashga imkon beradi. Amerika adabiyotida transsendentalist Genri Devid Torea (1817-1862) "Uolden yoxud o'rmondagi hayot" ("Walden, or Life in the Woods", 1854) nomli asari bilan ulkan shuhrat qozongan. Mazkur kitob ijodkorning avtobiografik asari hisoblanadi. Torea Uolden o'rmonidagi kulbada ikki yil tanho yashagan. Asarda muallif moliyaviy mustaqillikka erishning amaliy ko'rsatmalaridan tortib, o'zlikni anglashning chuqur falsafiy jihatlarini metaforik yo'l bilan poetik talqin etgan. D.Toreaning hayoti va qarashlarini K.Yung tipologiyasi prizmasi orqali o'rganish shuni ko'rsatadiki, Torea tabiatan introvert, shuningdek, ijodkorda tafakkur funksiyasi faol ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi (Introvert Denken, nem.). Toreaning uzlatga berilishi, tanholikdagi uzoq mushohadalardan zavq olishi, o'zlikni anglashning ichki chegaralarini amalda ko'rsatib berganligi, metafizik uslub – ijodkor tabiati haqida tiniq tasavvur hosil qiladi. "Torea bir joyda muqim yashashni nima uchun ixtiyor qilganini quyidagicha tushuntiradi: "Men o'z ongimni chalg'itmaslik uchun ko'p sayohat qilish yoki mashhur joylarga borishdan o'zimni tiyaman" [Vanspenkeren K., 1994; 30]. Nazarimizda,

garchi Toreada hindular va buddizm falsafasining ta'siri bo'lsa-da, ijodkor qarashlarini yo'naltirgan asosiy omil – uning tabiati. Buni Karl Yungning fikri tasdiqlaydi: "... aynan psixologik tip shaxs tafakkurini avvalboshdanoq belgilaydi va cheklaydi [Yung K., 2001; 18]. Genri Toreaning yana bir mashhur asari "Fuqarolik itoatsizligi"da [Civil Disobedience, 1849] adolatsiz qonunlarga passiv qarshilik nazariyasini ilgari suradi. Mazkur esse Maxatma Gandi, Martin Lyuter King kabi yo'lboshchilarga dasturilamal bo'lib xizmat qilgan. Ayrim tadqiqotlar ochiq konfliktga hayrixohlik ekstravertlarda ustun bo'lib, introvertlarning aksincha, ziddiyatlarga nafaol munosabatda bo'lishga moyilligini tasdiqlagan. Demak, ruhiy tipning shaxsning falsafiy qarashlarida va ijodida ham aks etishi mubolag'a emas.

Ingliz adabiyotida ko'plab ijodkorlar she'rlarida muayyan mushtarakliklarning ildizi ijodkor tabiati, o'xshash ruhiy tipga mansubligi ekanligini dalillashga harakat qilamiz. Jumladan, klassist shoir – Aleksandr Pop (1688-1744) "Ode on Solitude" ("Tanholikka qasida") she'rida baxtli hayotga xos xususiyatlarni sanab o'tadi:

*Happy the man, whose wish and care
A few paternal acres bound,
Content to breathe his native air,
In his own ground.*

*Whose herds with milk, whose fields with bread,
Whose flocks supply him with attire,
Whose trees in summer yield him shade,
n winter fire.*

*Blest, who can unconcernedly find
Hours, days, and years slide soft away,
In health of body, peace of mind,
Quiet by day,*

*Sound sleep by night; study and ease,
Together mixed; sweet recreation;
And innocence, which most does please,
With meditation.*

*Thus let me live, unseen, unknown;
Thus unlamented let me die;
Steal from the world, and not a stone
Tell where I lie.*

Qaramog'ida ko'p emas, bir oz o'z yeri bo'lib, qanoat bilan erkin nafas olgan baxtlidir. Chorvasi but, noni serob, yozda soya, qishda o't bo'luvchi daraxtlari borlarning tole'yi baland. Chinakam baxtli inson soatlari, kunlari va yillarini tani omonlikda, o'y-fikri xotirjamlikda, davomiy tinchlikda o'tkazadi. Halovatli uyqu, mutolaa va orom; beg'uborlik va muroqaba – hammasi birgalikda rohat bag'ishlaydi. She'r so'ngida shoir ko'rinmay, sezilmay umguzaronlik qilishga hamda dunyoni

sharaflarsiz tark etishga ruxsat so‘raydi. Ushbu asar 1700-yili yozilgan bo‘lib, o‘shanda Pop o‘n ikki yoshda edi. Popning oilasi Vindsor o‘rmoniga yaqin joyga ko‘chib keladi va bola yovvoyi tabiatning jozibasini o‘zi uchun kashf etadi. Mazkur she‘r o‘sha taassurotlar mahsuli o‘laroq vujudga kelgan. Katolik oilasida o‘sgan Pop uchun rasmiy maktab ta‘limi imkonsiz edi, sababi – o‘sha davrda Angliyada katoliklar ta‘qib qilingan. Qolaversa, bolaning jismonan zaifligi, bukriligi unga boshqa bolalar bilan o‘ynashiga to‘sqinlik qilardi. Pop uchun otasining mo‘jaz kutubxonasi, antik adabiyot mutolaasi yagona hayotiy zavq manbaiga aylangan. Ulg‘aygach Pop ijtimoiy faol, mashhur satirik shoirga aylangan bo‘lsa-da, ”Ode on Solitude” she‘ri muallifning shaxs sifatidagi ideallarini hamda tabiatini in‘ikos ettirgan asar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ingliz romantik shoiri Uilyam Vordsvort (1770-1850) “Ko‘l maktabi” shoirlaridan biri hisoblanadi. Vordsvortning she‘rlariga nafis tabiat manzaralari, inja tuyg‘ular tasviri, betakror ifoda uslubi ulkan joziba bag‘ishlaydi. Quyida shoirning “Nargiz gullar” (“Daffodils”). nomli she‘ridan parcha berildi (she‘r “I wandered lonely as a Cloud” nomi bilan ham uchraydi):

*Tog‘-u tosh va vodiy oralab go‘yo,
Men bulut singari yolg‘iz kezardim.
Va nogoh uchratdim, rostmi yo ro‘yo:
Bir to‘da tillarang nargis shodasin.
Daraxtlar ostida, ko‘l yonbag‘rida
Mayin epkin ohangida hilpirar, o‘ynar.*

(ingliz tilidan Gulnoz Mamarasulova tarjimasi)

Tog‘ bag‘rida yakka bulut misoli sayrga chiqqan shoir nargis gullariga duch keladi. Tabiatning oshig‘i bo‘lgan shoir uchun go‘yoki raqsga tushayotgan go‘zal nargis gullarini kuzatishdan ortiq rohat yo‘q. Nargis gullari shabboda tufayli chayqalib raqsga tushadi. Ular yulduz misoli Somon yo‘lini yoritadi, ularning jozibasi sohilga nur bag‘ishlaydi.

Oxirgi badda shoir, agar tushkunlik qalbini tirnasa, nargis gullari uning yolg‘izligiga taskin berishini aytadi. Qalbini farah hissi bilan to‘ldirib raqsdan bahramand etadilar:

*Goh qolsam tanholik qa‘riga cho‘mib,
O‘ychanlik qalbimni tirnasa goho,
Ko‘zimni yumaman, olaman yumib,
Nargis gul nigorin ko‘rmoqlik uchun.
Va yurak hapqirar hayajon ichra,
Nargis gullar bilan raqsga shoshilib.*

*For oft, when on my couch I lie
In vacant or in pensive mood,
They flash upon that inward eye
Which is the bliss of solitude;*

*And then my heart with pleasure fills,
And dances with the daffodils.*

Anglashiladiki, shoir uchun yolg'izlikda tabiatdan bahramand bo'lish farahbaxsh. Asliyatda oxirgi bandda "the bliss of solitude" ya'ni "tanholik rohati" degan so'z birikmasi uchraydi. Agar Aleksandr Popning "Ode on Solitude" ("Tanholikka madhiya") she'ri bilan Uilliyam Vordsvortning "Daffodils" ("Nargis gullari") asarini qiyoslasak, tipologik tutash nuqta namoyon bo'ladi. "Ode on Solitude" she'ri boshidan oxirigacha "tanholikda tinch yashash rohat" degan ma'noni ifodalasa, "Daffodils" she'rida muallif bir jumlagi (oxirgi banddagi "the bliss of solitude" jumlasiga) asarning butun konsepsiyasini sig'dira olgan. "Tanholik rohati" (the bliss of solitude) jumlasini ikki she'rni qondosh asarga aylantiradi (Biroq, aytish lozimki, o'zbek tilidagi tarjimada "tanholik rohati" birikmasi aks etmagan. Tarjimadagi "tanholik qa'riga cho'mib" tanholikka ijobiy emas, salbiy tus beradi). Mazkur qondoshlikning sababi nimada degan savolning javobini mualliflar shaxsiyatidan izlaymiz. Yuqorida Aleksandr Pop hayoti haqida ma'lumot berilgan edi. Uilliyam Vordsvort hayoti turli aspektlarda yoritilgan o'nlab biografik asarlar mavjud. "Sayr" (The Excurtion, 1814), "Sarhisob yoxud shuur kamoloti" (The Prelude or Growth of a Poet's Mind, 1850) poemalarini shoir umrining oxirgi yillarida yozadi. Ushbu poemalarda Vordsvortning olam va odam haqidagi chuqur falsafiy mushohadalari aks etgan. Vordsvort biografiyasini o'rgangan olimlar, uning shahar shovqinini, gavjum bazmlarni yoqtirmaganligini, shuning uchun ko'l bo'yida istiqomat qilishni afzal ko'rganligini ta'kidlashgan. "The World is too much with us" (Dunyo biz bilan gavjum, 1809) sonetida shoir shiddatli taraqqiyot sabab insoniyat va ona tabiat o'rtasidagi ko'rinmas rishtalar uzilganligidan shikoyat qiladi. Shoir tanholikdagi mushohada zavqini barcha narsadan ustun ko'rishini e'tirof etadi. Yana "Daffodils" she'riga bir detalga qaytib e'tibor qaratamiz. "Inward eye" jumlasini ingliz tilidan o'zbek tiliga "ichki ko'z", "botiniy ko'z" deb tarjima qilinadi. She'rida ijodkor nargis gullari "botiniy ko'zimni" nurlantiradi deb aytadi. Ramziy ma'noda gullar timsolidagi tabiat "ichki ko'zni (botiniy tafakkur jarayonini, o'zlikni anglashni) ravshanlashtiradi. Demak, Uilyam Vordsvortning yuqoridagi she'rida "botiniy ko'z", "tanholik lazzati" kabi detallarni muallif tabiatiga ishora qiluvchi ramzlar sifatida baholash mumkin. Garchi, sanoat inqilobiga qarshi kurashda tabiatdan najot izlash ingliz romantizmining bosh tamoyillardan biri bo'lsa-da, Uilyam Vordsvort misolida ko'rish mumkinki, bunda ijodkorning qanday ruhiy tipga mansubligini ham inobatga olish o'rinli.

Introvertlarda ruhiy quvvat botinga yo'nalganligi haqida yuqorida ma'lumot bergan edik. "Ruhiy tiplar" asarida tafakkur funksiyasi ustun bo'lgan introvertlar haqida Karl Yung shunday deb yozadi: "Ekstrovert kabi introvert ham o'z g'oyalari ta'siri ostidadir, biroq, ushbu g'oyalar obyektidan emas, balki, subyektiv asosdan kelib chiqadi. Ekstrovert kabi introvert ham o'z g'oyalari izidan boradi, faqat zohiran emas, botinan" [Yung K., 2001; 212]. Shu o'rinda K.Yung C.Darvin, J.Kyuve kabi tabiatshunoslarni tafakkur funksiyasi ustun ekstrovert tiplar sifatida tilga olsa, Kant va Nitsheni tafakkur funksiyasi ustun introvert tiplar sifatida misol qilib keltiradi.

Karl Yung fikriga ko'ra, ikki ruhiy tipda muayyan funksiyaning dominant

bo'lishi mumkinligini aytib o'tgan edik. Introversiyada intuitsiyaning ustun bo'lishi kishida qanday sifatlarni hosil qilishini K.Yung quyidagicha izohlaydi: "...intuitsiya ustunlik qilganda, xayolparast-mistik tip, shunindek, ijodkor tip namoyon bo'ladi. ...intuitsiyaning chuqurlashishi individning voqe'likdan uzoqlashishiga sabab bo'ladi, kishi hatto o'z yaqinlari uchun ham jumboq bo'lib qoladi. Agarda ushbu tip ijodkor bo'lsa, u noyob narsalarni, o'zga olamga tegishli narsalarni yaratadi, bular xilma-xil ajoyib narsalar antiqaligi bilan ajralib turadi" [Yung K., 2001; 221]. "Introvert intuitiv tip ekstravert intuitiv kabi kelajakni oldindan sezish, hali namoyon bo'lmagan vaziyatning imkoniyatlarini his etish kabi g'ayrioddiy qobiliyatga ega. Ammo sezgi ichkariga qaratilganligi bois, bunday tip, birinchi navbatda, bashoratchilar, payg'ambarlar, shoirlar va rassomlar orasida uchraydi; ibtidoiy xalqlar orasida esa ular qabilaga ilohiy xabarlarini yetkazuvchi shamanlarda uchraydi" [Sharp D., 1987; 228]. Karl Yung ta'rif bergan introvert intuitiv tipga adabiyotdan misollar izlaymiz. G'ayrioddiy ijodi bilan mashhur bo'lgan, biroq o'z zamonasida buyukligi anglanmagan, zamondoshlari telba deb hisoblashgan, zohidona hayot kechirib ilohiy ishq haqida otashin she'rlar yaratgan ikki avliyosifat ijodkor e'tiborimizni tortdi.

Ikki avliyo-shoir. Mistik shoir va rassom sifatida tanilgan Uilyam Bleyk (William Blake, 1757-1827) ijodining noyobligi bilan nom qozongan. Garchi san'at va ilm ahli Bleyk falsafasining teranligini e'tirof etishsa-da, zamondoshlari shoirni telba deb bilishgan. Uilyam Bleyk qashshoqlikda voyaga yetadi, o'n yoshgacha maktab ta'limidan bahramand bo'lgan. Bolalik chog'laridan xayollarga beriluvchan Bleyk o'ngida farishtalarni ko'radi; rasm chizganda ham o'zga olam ahlini, jannat va do'zax tasvirlarini aks ettiradi. Injil kitobi Bleyk uchun ilhom manbai, tayanch bo'lgan. Otasi uni o'n to'rt yoshida Djeys Besayer degan taniqli naqqoshga shogirtlikka beradi. Shu o'rinda, aytib o'tish lozimki, aslida, Bleykning ota-onasi boshqa bir nomzodni, qirol rassomi Uilyam Raylendni (William Ryland) o'g'illariga ustozlikka loyiq topishadi. Biroq Raylend bilan yuzlashgan Bleyk otasiga boshqa nomzod qidirishni iltimos qiladi. Bleykka Raylendning turqi yoqmaydi, "bunaqangi jinoyatchilar osib o'ldiriladi" deydi otasiga. O'sha voqeadan bir necha yil o'tgach, Raylend, haqiqatan ham qalloblikda ayblanib dorga osiladi. Ayon bo'ladiki, Bleykdagi kuchli intuitsiya bashorat qilishga imkon bergan. Keyinchalik Bleyk Qirollik akademiyasida ta'lim oladi. "Poetical Sketches" ("She'riy mashqlar", 1783) asari Bleykning ilk to'plamidir. Bleyk shoir sifatida sermahsul ijod yo'lini bosib o'tdi. Uning "America a Prophecy" ("Amerika: Bashorat", 1793), "Europe a Prophecy" ("Yevropa: Bashorat, 1794-1821) asarlarida ham shoirning kuchli intuitiv tafakkur tarzi namoyon bo'ladi.

"Qarilik chog'ida Bleyk mistik tasavvurlar og'ushida qolib ketadi. Taqvodor va mehribon Bleykni tushunishmaydi, unga loqayd qaraydilar. Faqat eng yaqin insonlari hamrohligida, vahiy va samoviy ilhomga to'la qanoatli hamda zohidona turmush kechiradi" [Cousin J., 1910; 76].

Otashnafas shoir Rahim Bobo Mashrab (1640-1711) ham noyob iste'dod egasi edi. Devonai Mashrab, Telba Mashrab, Shoh Mashrab nomlari bilan tanilishiga qalandarona hayot kechirganligi, jahongashtaligi, botirso'zligi, xalqparvarligi sabab bo'lgan. Mashrabning hayoti va ijodi haqida bizga yetib kelgan manbalar afsona va

rivoyatlarga to‘la bo‘lsa-da, ko‘plab fidokor olimlarning sa’y-harakatlari, tadqiqotlari bilan shoir merosi haqida salmoqli manbalar vujudga keldi.

Ruh odamlari. Tasavvufga oid manbalarda so‘fiylar odamlarni uch toifaga bo‘lishlari aytiladi: nafs bandalari, qalb odamlari va uchinchi toifa – ruh odamlari. Ruh odamlari barcha hodisalarda ilohiy hikmat ko‘radilar. “Mashrab tasavvuf axloqining uchinchi toifasiga mansub, u borlig‘ini Haq yo‘liga tikkan so‘fiy mutafakkirdir” [Hoshimjonov M., 2001; 111]. Garchi mutasavvuf bo‘lmasada, Bleyk ham zohidona hayot kechirib, ilohiy mohiyatni anglashni hayotining mazmuni deb bilgan. Har ikki shoir foniy dunyoga, mol-davlatga, nafsga ko‘ngil bermaganlar. Ular uchun xudo vasliga, roziligiga erishish oliy qadriyat bo‘lgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, Karl Yung introvert intuitiv tiplarda jismning moddiy ehtiyojlariga befarqlik kuzatilishini qayd etadi [Sharp D., 1987; 147]. Mashrabning nafsi ammoraga munosabati qator rivoyatlarga sabab bo‘lganligi ma’lum. Bleyk esa o‘zi tug‘ilib o‘sgan shahardan chetga chiqmay, bir umr faqirlikda yashaganligi manbalarida qayd etilgan.

Uilyam Bleyk yashagan davrda ingliz jamiyati ma’rifatparvarlik g‘oyalari ta’siri ostida edi. Ratsionalizm xalq tafakkurida ilohiy tasavvurlarga zarba berayotgan bir davrda Bleyk o‘z asarlarida bot-bot Injil rivoyatlarini, jannat va jahannam tasvirlarini obrazli aks ettirdi. Bleykning olam haqidagi tasavvurlariga, shoir shaxsiyatining ruhiy jihatlariga bag‘ishlangan asarlar ko‘payib bormoqda. Xususan, 2021-yili chop etilgan Jon Xigsning “William Blake vs The World” (Dunyo va Bleyk) asari shoirning o‘z davridagi noyob va g‘ayrioddiy mutafakkir bo‘lganligini asoslab berishga qaratilgan.

Boborahim Mashrab jaholat, xurofot, xalqqa zulm kuchaygan murakkab bir davrda yashab o‘tdi. “Mashrab mutasavvufdir va mutasavvuf bo‘lg‘oni uchun materialist va dinsiz bo‘la olmaydir” [Fitrat A., 2000; 56], deb yozadi Fitrat. Ayonki, Mashrab she’riyati uchun ijodkorning diniy e’tiqodi asos bo‘lib xizmat qilgan. “Mashrab she’rlarida hukmron tabaqa namoyandalarning riyokorligi, munofiqligi, o‘zboshimchaliklari va aytish mumkinki, mavjud tuzum zulmi kirdikorlarini ayovsiz fosh eta oldi” [Hoshimjonov M., 2008; 382]. Shoirning “Mab dai nur” va “Kimyo” asarlari Sharqning betakror ma’naviy merosi sirasiga kiradi.

Sodda shakl, cheksiz mazmun. Millati, dini, tili boshqa bo‘lgan ikki ijodkorning she’riyati mushtarak jihatlariga ega. Birinchidan, Bleyk va Mashrab ijodi kuchli obrazlilik bilan ajralib turadi. Xususan, kuchli obrazlilikning sodda tilda ifodalanishi diqqatga sazovor. Uilam Bleyk yozadi:

*Daqiqada mangulik shoyon,
Ulkan dunyo — qumning zarrasi.
Cheksizlik — bir hovuchdir, ayon,
Osmon — misli gulning kosasi .*

(ingliz tilidan Ikrom Otamurod tarjimai)

Yuqorida “Auguries of Innocence” (“Beg‘uborlik mujdalari”) she’ridan ilk to‘rt qatori keltirildi. 1803-yili yozilgan bo‘lsa-da, mazkur she’r oltmish yildan so‘ng, 1863-yili to‘plam sifatida nashrga berilgan. She’rda kichik bir hodisa boshqa bir yirik hodisaga o‘xshatiladi, qum zarrasi butun olamni o‘zida aks ettirsa, daqiqa kabi

kichik vaqt birligi cheksizlik, abadiyat bilan yonma-yon turadi. Keyingi misrada esa, cheksizlikning o'zi bir siqim, inson hovuchiga sig'adi go'yo... deyilmoqda. Musaffo osmon esa nozik bir gulga monand. Ohorli metaforalar shodasi tasavvurimizda mikro-va makroolam aloqadorligining go'zal she'riy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Boborahim Mashrab yozadi:

*Arshning kungurasin ustiga qo'ydim ayoqim,
Lomakondin joy olibman, bu makonni na qilay?*

“Lomakon”ning ma'nosi makondan xorij, haddu hududsiz demak” [Mashrab B., 1990; 8]. Mashrab mazkur misrada foniy va boqiy dunyoni, abadiyat va o'tkinchilikni, bir sathda, yonma-yon qo'yish orqali shuurimiz chegaralarini parchalab tashlaydi. Bu makon, ya'ni dunyoviy hayot shoir uchun qadrsiz, chunki uning diqqati haqiqiy, abadiy makonga intizor.

Ikkinchidan, har ikki shoirning xalqparvarligi ijodida chuqur aks etgan. Jumladan, Uilyam Bleykning “Songs of Experience” (“Tarjiba qo'shiqlari”) nomli to'plamida qashshoqlik, zulm, irqchilik, quldorlik, poraxo'rlik kabi ijtimoiy illatlar tanqid qilingan she'rlari mavjud. “The Marriage of Heaven and Hell” (“Jannat va jahannamning to'yi”, 1790-1793) asarida hukumat va cherkovning zulmi achchiq tanqid qilingan.

Mashrab she'riyatida beshafqat boylardan, riyokor din peshvolaridan azob va uqubat ko'rgan och-yalang'och xalqqa nisbatan hamdardlik yaqqol ifodalangan. “Dili tig'i sitamdan pora bo'lgan xalqni ko'rdim” deb nola qiladi shoir.

XULOSA

Anglashiladiki, adabiy mushtarakliklar ildizi ancha teran, asar tahlili orqali ijodkor tafakkuri puchmoqlariga, ruhiy olamiga yaqinlashganimiz sari badiiy ijodning nozik sinoatlari bo'y ko'rsatadi. Uilyam Vordsvort hamda Aleksandr Pop, Bleyk va Mashrab misolida ko'rish mumkinki, shoirlarning hayot yo'li va ijodidagi yaqinlikning manbayi ularning tabiati, muayyan ruhiy tipga mansubligi bilan aloqador.

Xulosa shuki, psixologik tipologik mushtarakliklarni tadqiq etishda ijodkorlar shaxsini, qaysi ruhiy tipga mansubligini hisobga olish ijod jarayonining yangi qirralarini ochishga yo'l beradi. Bunda Karl Yungning ruhiy tiplar haqidagi qarashlari komparativistika uchun qimmatli ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Augustinavichyute, A. (1997). *Dual'naya priroda cheloveka*. Kiev: Izdatel'stvo Mezhdunarodnogo instituta socioniki.
2. Barker, J. (2006). *Wordsworth: A life*, Harper Collins. New York: Harper Perennial.
3. Box, R.E. (1966). *Temperament and the interpretation of freedom: A study of some of the psychological determinants of philosophical thought*. Michigan: School of Theology at Claremont.
4. Davletshin, M.G. (2011). *Umumiy psixologiya*. Toshkent: Fan-texnika markazining matbaa ijodiy uyi.
5. Fitrat, A. (2000). *Tanlangan asarlar: ilmiy asarlar* (2-jild). Toshkent: “Ma'naviyat” nashriyoti.

6. Geyer, P. (2018, October). *Studying psychological types-what I've learned, unlearned and had confirmed Brisbane 2018*. Researchgate, Werribee. <https://www.researchgate.net/publication/337499709>.
7. Gill, S. (1989). *William Wordsworth: A life*. London: Oxford University Press.
8. Higgs, J. (2021). *William Blake vs the world*. London: Weidenfeld and Nicolson.
9. Hoshimjonov, M. (2008). *Mashrab, mo 'tabar o 'zim*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
10. Howard, R. & Maeve, M. (1990). Extraversion and performance in the perceptual maze test. *Personality and Individual Differences*, 11(4), 391-396. Belfast. [https://doi.org/10.1016/0191-8869\(90\)90221-C](https://doi.org/10.1016/0191-8869(90)90221-C).
11. Hunter, D. (2009). *William Wordsworth: A biography, Frances Lincoln*. London: Frances Lincoln.
12. Jung, C.G. (1981). *The archetypes and the collective unconscious* (2nd ed.). New Jersey: Princeton University Press.
13. Jung, C.G. (1971). *Psychological Types*. New Jersey: Princeton University Press.
14. Karimov, B. (2018). *Ruhiyat alifbosi*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
15. Cox, J. (2021). *William Wordsworth, second-generation romantic: Contesting poetry after Waterloo*. London: Cambridge University Press.
16. Cousin, J. (1910). *A short biographical dictionary of English literature*. London: J.M. Dent & Sons Ltd.
17. Moorman, M. (1965). *William Wordsworth, A biography: The early years, 1770–1803*. London: Oxford University Press.
18. Naqi, A. (2019). Keats and Faiz: The introverts, the philocalist Kinsmen and the state of Cyclothymia. *Global Social Sciences Review*, 4(1), 84-89. Islamabad. [https://doi.org/10.31703/gssr.2019\(IV-I\).11](https://doi.org/10.31703/gssr.2019(IV-I).11)
19. Sharp, D. (1987). *Personality types: Jung's model of typology studies in jungian psychology*. Toronto: Inner City Books.
20. Vanspenkeren, K. (1994). *Amerika adabiyoti*. Toshkent: Amerika Qo'shma Shtatlari Axborot idorasi.
21. Yung, K. (2011). *Psixologicheskie tipy*. Sankt-Peterburg: Azbuka.

REFERENCES

1. Augustinavichute, A. (1997). *The dual nature of man*. Kyiv: Publishing House of the International Institute of Socionics.
2. Barker, J. (2006). *Wordsworth: A life, Harper Collins*. New York: Harper Perennial.
3. Box, R.E. (1966). *Temperament and the interpretation of freedom: A study of some of the psychological determinants of philosophical thought*. Michigan: School of Theology at Claremont.
4. Cousin, J. (1910). *A short biographical dictionary of English literature*. London: J.M. Dent & Sons Ltd.
5. Cox, J. (2021). *William Wordsworth, second-generation romantic: Contesting poetry after Waterloo*. London: Cambridge University Press.
6. Davletshin, M.G. (2011). *General psychology*. Tashkent: Creative Printing House of Science and Technology Center.
7. Fitrat, A. (2000). *Selected works: Scientific works* (Vol. 2). Tashkent: "Spirituality" Publishing House.
8. Geyer, P. (2018, October). *Studying psychological types-what I've learned, unlearned and had confirmed Brisbane 2018*. Researchgate, Werribee. <https://www.researchgate.net/publication/337499709>.
9. Gill, S. (1989). *William Wordsworth: A life*. London: Oxford University Press.

10. Higgs, J. (2021). *William Blake vs the world*. London: Weidenfeld and Nicolson.
11. Hashimjonov, M. (2008). *Mashrab, honorable me*. Tashkent: Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi.
12. Howard, R. & Maeve, M. (1990). Extraversion and performance in the perceptual maze test. *Personality and Individual Differences*, 11(4), 391-396. Belfast. [https://doi.org/10.1016/0191-8869\(90\)90221-C](https://doi.org/10.1016/0191-8869(90)90221-C).
13. Hunter, D. (2009). *William Wordsworth: A biography, Frances Lincoln*. London: Frances Lincoln.
14. Jung, C.G. (1971). *Psychological Types*. New Jersey: Princeton University Press.
15. Jung, C.G. (1981). *The archetypes and the collective unconscious* (2nd ed.). New Jersey: Princeton University Press.
16. Jung, K. (2011). *Psychological types*. Saint Petersburg: ABC.
17. Karimov, B. (2018). *The alphabet of the soul*. Tashkent: Publishing House named after Gafur Gulam.
18. Moorman, M. (1965). *William Wordsworth, A biography: The early years, 1770–1803*. London: Oxford University Press.
19. Naqi, A. (2019). Keats and Faiz: The introverts, the philocalist Kinsmen and the state of Cyclothymia. *Global Social Sciences Review*, 4(1), 84-89. Islamabad. [https://doi.org/10.31703/gssr.2019\(IV-I\).11](https://doi.org/10.31703/gssr.2019(IV-I).11)
20. Sharp, D. (1987). *Personality types: Jung's model of typology studies in jungian psychology*. Toronto: Inner City Books.
21. Vanspenkeren, K. (1994). *American literature*. Tashkent: United States Information Office.